



## Pedagogical and psychological factors of personal formation of young people in social relations

Ibrohimjon MAHMUDJONOV<sup>1</sup>

Andijan State University

### ARTICLE INFO

*Article history:*

Received April 2023  
Received in revised form  
15 May 2023  
Accepted 25 May 2023  
Available online  
15 June 2023

**Keywords:**

social attitude,  
personality,  
pedagogical and  
psychological factors,  
perception,  
reality,  
motive and motivations.

### ABSTRACT

The article is based on the development of a scientific-practical proposal and recommendation based on the identification of pedagogical and psychological factors of the formation of a person in social relations at a young age.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss4/S-pp237-245>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Yoshlarni ijtimoiy munosabatlarda shaxs sifatida shakllanishining pedagogik va psixologik omillari

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

ijtimoiy munosabat,  
shaxs,  
pedagogik va psixologik  
omillar,  
idrok,  
voqelik,  
motiv va motivatsiyalar.

Ushbu maqola yoshlarda ijtimoiy munosabatlarda shaxs sifatida shakllanishining pedagogik va psixologik omillarini aniqlash asosida ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

<sup>1</sup> Student, Pedagogy and psychology direction, Faculty of Socio-Economics, Andijan State University.

# Педагогические и психологические факторы личностного формирования молодежи в социальных отношениях

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

социальная установка, личность, педагогико-психологические факторы, восприятие, действительность, мотивы и мотивация.

В основу статьи положена разработка научно-практического предложения и рекомендации, основанной на выявлении педагогических и психологических факторов формирования личности в социальных отношениях в юношеском возрасте.

Jahon ta'lim va ilmiy markazlari tomonidan yoshlarda ijtimoiy munosabatlarda shaxs sifatida shakllanishining pedagogik va psixologik omillari rivojlanish imkoniyatlarini, shaxsiy hayotini, kasbiy faoliyati uchun intilishlari, ta'lim tarbiya jarayoni va shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan psixologik xususiyatlarni ro'yobga chiqarish orqali o'z-o'zini takomillashtirishga ta'sir etuvchi demografik, individual omillarni o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada yoshlarda ijtimoiy voqelikka munosabat shakllanishi, ularda o'zaro munosabatlarning rivojlanish dinamikasi, shaxslararo hamkorlik muammosi, o'zaro jarayonlardagi munosabatlar hamda ularning sotsializatsiyasi, ijtimoiy hozirlik va individual tipologik tuzilmalarini aniqlash bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik izlanishlarga alohida e'tibor qaratish zarurati mavjud.

Respublikamizda yoshlarda ijtimoiy munosabatlarda shaxs sifatida shakllanishining pedagogik va psixologik omillarini tadqiq etish orqali hamjamiyatimizni siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik taraqqiyotida ko'zda tutilgan ijobiy o'zgarishlarga daxldorlik hissini tarkib toptirish bo'yicha zarur huquqiy-me'yoriy asoslar yaratilmoqda. “.. Yoshlarni san'at dunyosiga oshno etish, komputer va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta'minlash borasidagi ishlar yangi sifat bosqichiga ko'tarish” [1] masalalari bilan bir qatorda ularni shaxslararo munosabatlarga ijtimoiy-psixologik tayyorlash, kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishlari ustuvor vazifa sifatida belgilanganligi, jamiyatimiz a'zolari bo'lgan yoshlar masalalarini ilmiy o'rganishga zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida” Farmonlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son “Psixologiya sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori va boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamlı strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyat chuqur inqirozni boshdan kechirmoqda, biz bu jarayonni bevosita kuzatamiz, shu bilan birgalikda uning ishtirokchilarimiz. Notinchlik, doimiy ijtimoiy beqarorlik hozirgi ijtimoiy voqelikning o'ziga xos xususiyati bo'lib, uning o'zgarishlari tez rivojlanmoqda. Ijtimoiylik qiyofasini o'zgartirishda globallashtirish jarayonlarining roli haqidagi munozaralar hali tugallanmagan, raqamli jamiyat muammosi qanday paydo bo'lgan, bu zamonaviylik va uning kelajak qiyofasi doirasida namoyon bo'lgan so'nggi tendensiya o'zini madaniy tajribani o'rnatishning yangi shakllarida, virtual, raqamli, haqiqiy "Men" birlashadigan yangi shakldagi o'ziga xosliklarda namoyon bo'lmoqda. Nihoyat, ijtimoiy voqelik murakkabligi, mozaikligi, ko'p darajali va ko'p bosqichli, o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi, bu ham uni tasvirlash va tushunishni qiyinlashtiradi.

Internetdan tortib blokcheyngacha bo'lgan yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyatni yangicha shaklda qayta tashkil etmoqda. Gorizont va tarmoq tuzilmalari iyerarxiyalarga nisbatan ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini kuchaytirmoqda. Bir tomondan, bu zamonaviy inson uchun katta imkoniyatlarni ochib beradi: ijtimoiy tarmoqlarda deyarli bir lahzali muloqotdan tortib, davlat va uning institutlari bilan elektron aloqaga qadar. Axborot o'ziga xosligi, axborot jamiyati rivojlanishining natijasi yoki insonga tushadigan ma'lumotlarning miqdori va intensivligi uning tanqidiy idrok etishini cheklaydi. Bugungi kunda axborot oqimining shiddati juda tezkorlik bilan rivojlanib, ortib bormoqda. Shuning uchun yangicha ijtimoiy vaziyatda iqtisodiy-siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish darajasini o'rganish dolzarb muammo sifatida gavydalanmoqda.

Falsafa fanida voqelik fenomeni – haqiqiy mavjud reallik. Voqelik "o'z-o'zidan" bilish tufayli namoyon bo'lishi mumkin hisoblangan va muayyan vaqtda ro'y bergan barcha narsa va hodisalardir. Voqelik mavjud narsalarga taalluqli, ularning mavjudligi dalil isbotni talab etmaydi. Bunda asosiy muammo narsalarning voqeligi, real mavjudligida emas, balki biz uni qanday idrok etishimizda, tushunishimizdadir [2]. Mazkur muammo quyidagi nuqtai-nazarlarga ko'ra hal etilishi mumkin:

1. Bilish "o'z-o'zidan mohiyatni" aniqlashga yo'naltirilgan. Voqelikni anglash uchun uni ong bilish ob'yektiga aylantirmog'i lozim. Shu ma'noda, voqelik bilish holatidan qat'iy nazar, ongdan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan narsalar voqeligi, tabiatiga ega. Bilish voqelikning mohiyatini aniqlash jarayonidir.

2. Voqelikni bilish insonga xos bo'lgan hissiy-transtsendent holat hamdir. Buning ma'nosi shuki, voqelik ta'sirida insonda emotsional-retseptiv holatlar mavjud bo'ladi, ularni mavjudligini o'zi ham voqelik. Masalan, kishilarning hissiy-retseptiv tajribalari, ta'sirlanish, chidam, azob va hokozolar shular jumlasidandir[3]. Mazkur ma'noda, voqelik voqealar tarzida namoyon bo'ladi. Bilish faqat real mavjud bo'lgan narsalarning mohiyatini tushunishgina emas, balki, narsalarning insonga ta'siri natijasida hosil bo'ladigan xatti-harakatlar, emotsional holatlarni tushunish (nimanidir kutish, oldindan sezish, o'zini nimagadir tayyorlash, yutuq va kamchilikni his qilish, o'zi va boshqalar hatti-harakatlari oqibatlarini, o'zi va boshqalar kayfiyatlarini bilish) hamdir. Voqelik bo'lishi kutilgan narsalarni oldindan sezish, ko'rish, his qilish tarzida namoyon bo'ladi. Insonning xatti-harakati voqealar jarayoni yoki insonni bilishga yo'naltirilgan.

Falsafa fani tarixiy taraqqiyotida ijtimoiy voqelik fenomeni bir necha bor o'rganilish ob'yektiga aylangan bo'lsa-da, u aynan yakka tartibda o'rganilmagan hodisa hisoblanadi. Jamiyat, davlat, jamoatchilik aloqalari, ijtimoiy mavjudot va boshqa tushunchalar bilan bog'liq ravishda tahlil qilingan.

Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlari (Suqrot, Platon, Arastu, Aurelius Avgustin, Tomas Akvina va boshqalar) asarlarida ijtimoiy voqelik mavzusi alohida mustaqil tadqiqot yo'nalishi sifatida ajratilmagan [4]. Antik davr falsafasida bizni atrof-muhit va narsalar to'g'risida tasavvurlarimizning shakllanishi har doim "narsalardan – voqelikka" yo'nalishida tahlil qilingan [5], u mavhumliklar va spekulyatsiyalar uchun asos bo'lgan. Metafora va analogiyalar asoslarini yaratgan. Qadimgi Yunonistonda barcha narsalarning tabiatini Suqrotgacha bo'lgan davrda birlamchi elementlariga bog'lab tushuntirganlar. Lekin narsalarning birlamchi elementlari baribir mavhumlikka qarab ketgan, mavhumlik esa haqiqatni kashf etishga undagan. Suqrot esa birinchi bo'lib, bu ikki narsani bog'lab insonning ichki dunyosini bilishning konseptual darajasiga e'tibor qaratgan holda quyidagicha tushuntirgan voqelik – inson tafakkurining voqeligi, uning dinamik va dialektik xarakteridir.

Demokrit ta'limotiga ko'ra, faqat umumiy nuqtai nazardan rang bor, fikrda-shirin, fikrda-achchiq, aslida esa faqat atom va bo'shliq mavjud. "Umumiy fikr" narsalarning tabiatiga ko'ra emas, balki "umumiy qabul qilingan fikrga ko'ra" va "biz uchun" degan ma'noni anglatadi. U o'z navbatida, narsalarning tabiatini "haqiqat" iborasi bilan ifodalaydi. Demokrit o'z qarashida ob'yektiv ravishda mavjud bo'lgan "narsalarning tabiati" va sub'yekt tomonidan hissiy idrok etish shakllariga e'tibor qaratadi.

Platon esa voqelik haqidagi g'oyalarni rivojlantirib ikkita voqelikning mavjudligini asoslab bergan. Birinchisi empirik va inson idrok eta oladigan, ikkinchisi esa insoniyat tomonidan idrok etib bo'lmaydigan narsalar va g'oyalar voqeligi.

O'rta asrlarda ijtimoiy voqelik to'g'risida aniqroq tushunchalar va qarashlar paydo bo'la boshladi. Mutafakkirlar va ilohiyotshunoslarning bahs-munozaralari natijasida fan ko'plab ma'lumotlar bilan boyib bordi. Ijtimoiy voqelik mavzusining ayrim jihatlari P. Dekart, B. Spinoza, T. Xobbs, J. Lokk va Yangi davrning boshqa mutafakkirlari tomonidan ko'rib chiqila boshlandi. Ularning ilmiy ishlari ijtimoiy voqelik, qoida tariqasida davlat va siyosiy muammolar miqyosida tahlil qilingan. Xususan, J. Lokk narsa va jismlarning asosiy xususiyatlari uzunlik, o'lcham, shakl, nisbiy holati, o'tkazuvchanligi, miqdoriy xususiyatlari, surilishi, mexanik harakati, tinch holati va davomiyligi ikkilamchi rang, tovush, ta'm, hid va boshqalarga qaraganda ko'proq haqiqatga ega deb aytgan.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida paydo bo'lgan sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya fani ijtimoiy voqelikni faol ravishda o'rganishni boshladi, lekin sotsiologiyaning o'ziga xos predmeti va o'ziga xos usullari bo'lgani sababli ijtimoiy voqelikni o'rganish, avvalambor, sotsiologik bilimlar rivojlanishi uchun xizmat qilmoqda. O'sha davrlardan boshlab deyarli barcha faylasuf va sotsiologlar turli xil konseptual pozitsiyalardan jamiyatning munosib modellarini yaratishga harakat qilishdi. Jumladan: F. Giddins, L. Gumpulovich, V. Papeto, P. Park, T. Parsons, P. Sorokin, M. Blansho kabi olimlar ijtimoiy voqelik nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar [28;103]. Ijtimoiy voqelikni postmodernizm asoslariga tayangan holda, J. Bodriyyara, J. Deleza, J. Derpida, M. Fukolar tomonidan ijtimoiylikning yangi qiyofasi ijtimoiy voqelik – virtuallik tushunchasi fanga kiritildi.

XX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy voqelik tabiati, jamiyatning mohiyati va ularning tarkibiy modellarini yaratish imkoniyatlari haqida ko'plab yirik olimlar P. Aron, P. Berger, P. Burdie, E. Giddens, L. Goldman, A. Gouldner, G. Lukman, N. Luman, K. Manxeym, Yu. Xabermas, P. Shtompki, A. Shyuts asarlarida fikr yuritildi va qisman ta'riflab berildi.

Ijtimoiy voqelikdagi aloqalar, bog'liqliklar, almashinuvlar tarmog'i yangicha interdividual voqelik sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu odamlarni bir-biri bilan bog'laydigan

o'ziga xos ijtimoiy muhitni tashkil etmadi. "Voqelikning ijtimoiy qurilishi nafaqat ijtimoiy taraqqiyotning murakkab mexanizmlarini boshqarish va o'zlashtirishni, balki shaxsni unga adaptatsiyalashuvini ta'minlash muhim ekanligini dalillamoqda".

"Yoshlarda ijtimoiy voqelikning individuallashuv jarayonlaridan tashqarida mavjudligini hamda rivojlanishini ham ko'rish mumkin. Lekin ijtimoiy axborotni idrok etish va qayta ishlash faqat insonning sub'yektiv mexanizmlari yordamida amalga oshiriladi". Ob'yektiv xususiyatga ega bo'lgan ijtimoiy voqelik shaxs tomonidan uning xulq-atvorida allaqachon mavjud bo'lgan sub'yektiv xarakterga ega bo'lgan konstruksiyalar (masalan, stereotiplar yoki qo'rquvlar) orqali idrok etiladi.

Xulq-atvoriga ta'sir etuvchi bir stimuly, turli odamlar, hattoki bir odam tomonidan, turli kontekstda turlicha interpretatsiya qilinishi mumkin. Shu bois, turli psixologik yo'nalishlarda sub'yektiv interpretatsiyalarni tadqiq etish muammosi markaziy o'rinda turadi. Inson idroki to'liqligiga uning tajribasi, ko'nikma va bilimlari anglash aktidagi har qanday axborot mazmunini belgilab ta'sir qilib boradi. Anglash jarayonini tadqiq etishga bo'lgan zamonaviy ijtimoiy-psixologik yondashuv muammoning ikki jihatini kashf etadi:

1. Anglash jarayonini ijtimoiy determinatsiyalashganligi tahlili.
2. Ijtimoiy voqelik, ijtimoiy ob'yektlarni anglash jarayonining o'zi.

Ushbu yondashuv doirasida anglashning bir necha jabhalari inobatga olinadi: ijtimoiy idrok (interpersonal idrok mexanizmlari va effektlari, shaxslararo idrok aniqligi, shaxslararo attraksiya va h.k.) mavjudligi hamda atributiv (nisbatlash) jarayonlar (G.Kelli, E.Jons, P.Nisbet) va kognitiv konstruktarning (F.Xayder, T.Nyukom, CH.Osgud, P.Tannenbaum, L.Festinger) mavjudligi.

Hozirgi kunda fan tizimli bilimni rivojlantirishning hukmronlik qiluvchi vositasidir. Bilim va axborotning o'zaro nisbatida ular o'rtasida murakkab sinergetik-dialektik aloqa ochiladi. Bilim shaxsiy tajriba mavjudligini ko'zda tutsa, axborot aksariyat holda uni e'tiborga olmaydi. Odami hali birlamchi tajribaga ega bo'lishga ulgurmay turib, axborot unga ikkilamchi tajribani yetkazib beradi.

Axborotning globallashuv jarayoniga falsafiy va ijtimoiy-psixologik jihatdan yondashganimizda, uning mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin. Global so'zi (fransuzcha global – umumiy, lotincha globus – shar) muomalada quyidagicha ma'nolarni ifodalaydi – 1. Butun yer sharini qamrab oluvchi;

2. Har tomonlama, to'liq, yalpi, universal. Global muammolar esa – umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog'liq hozirgi zamon muammolari.

"Xulosa qiladigan bo'lsak, har bir odami idroki oniy ta'sirni passiv aks ettirish emas, ijtimoiy kontekst tomonidan belgilanadigan, yaxlit sifatini anglashga qaratilgan, anglashning jonli va ijodiy jarayonidir". Shuning uchun uni E.To'ffler tomonidan farqlangan voqelikning turli fragmentlari (parchalarini) "muhit" sifatida ilgari suriladigan, konkret ijtimoiy "muhitlar" doirasida tahlil qilish joiz.

"Aynan o'sha besh xil munosabat – zamonaviy istiqbol negizida – ijtimoiy tajriba to'qimasini shakllantiradi. Individning ushbu komponentlarga bo'lgan o'ziga xos munosabati ijtimoiy anglash tomonidan bilvositalashgan inson tajribasi tuzilmasini ifodalaydi. E.To'ffler yondashuvning qadr-qimmati shundaki, u nafaqat ijtimoiy voqelik "muhiti" holatini farqladi va ko'zdan kechirdi, balki inson shaxsining ijtimoiy anglash va adaptatsiyalashuv jarayonlarini: o'tmish-bugun-kelajak uzviyligida tadqiq etish imkonini beradigan, muvaqqatlik konsepsiyasini iste'molga kiritdi. Taraqqiy etayotgan

munosabatlar tizimidagi faol tuzilma sifatida ilgari surilayotgan shaxs ikki tendensiya egasiga aylanadi”:

1. Tizimning umumiy tajribasi, ya’ni saqlanish, qayta tiklanish tendensiyasi. Ayni vaziyatda, A.G.Asmolov fikriga ko’ra, shaxs, shaxs va tizimni uzviylik, yaxlitlik sifatida ilgari suriladigan utilitar funksional sifatlarini namoyon qiladi;

2. Innovatsiyalar tizimida yangiliklar paydo bo’lishini ta’minlaydigan, “kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish”, o’zgarishlarga moyillik tendensiyasi. Shaxsda shaxsni jamiyat tomonidan to’liq qamrab olinishi tufayli vujudga keladigan, o’ziga xos tizimli sifatlar namoyon bo’la boshlaydi.

Bizning fikrimizga ko’ra, ushbu tendensiyalar insonning ijtimoiy voqelikka qaratilgan ijtimoiy ustanovkalarida (hozirligi) o’z ifodasini topadi. Biz “ijtimoiy voqelikka qaratilgan ustanovka” terminini, odamning ijtimoiy ob’yektlar, ijtimoiy muhitga qaratilgan yo’nalishda harakatga hozirligiga urg’u berish maqsadida iste’foda etyapmiz.

Yuqorida tahlil etilgan nazariy konstruktlar negizida “Ijtimoiy voqelikdagi konservatsiya va o’zgarishlarga qaratilgan ustanovkalarni aniqlash” anketasi ishlab chiqilgan.

Anketa E.To’fflerga binoan, ijtimoiy voqelik muhitlariga xos 5 blokdan tashkil topgan. Birinchi blok insonni “buyumlar” ijtimoiy muhiti bilan o’zaro ta’sirini tavsif etadi: egalik, saqlash, ayriliq, o’zgarishlarga munosabat, muvaqqat foydalanishga munosabat; ikkinchi blok “odamlar” muhitiga muvofiq, uchinchi blok – “tashkilot” muhiti, to’rtinchi blok – “axborot” muhiti, beshinchisi – “maskan”ga xos.

Savollar odamlar hayoti davomida to’qnash keladigan yoki to’qnashining ehtimoli yuqori bo’lgan, odatiy hayotiy vaziyatlarni tavsiflaydi. Har bir savolga 8 ta muqobil javob taqdim etiladi va sinaluvchidan ular orasidagi, uning mazkur vaziyatga munosabatini aks ettiradigan, uchta muqobil javobni tanlash taklif etiladi. Har bir savolga berilgan javoblarda odamning ikki asosiy ijtimoiy ustanovkasi mavjud: ijtimoiy voqelikning konservatsiya ustanovkasi va ijtimoiy voqelikni o’zgartirish ustanovkasi. Faktorli tahlil natijalari asosida har bir ijtimoiy ustanovka asoslari uch integral faktorlarga umumlashtirilgan.

### 1.1-jadval

#### Emotsional asoslarga ko’ra ijtimoiy voqelikka qaratilgan ustuvor ustanovkalarining har biri bo’yicha faktorlar

Ijtimoiy voqelik konservatsiyasiga qaratilgan ustanovkalar	Ijtimoiy voqelikni o’zgartirishga qaratilgan ustanovkalar
<b>Faktor 1. “Mening olamim” muntazamligi</b>	<b>Faktor 1. Yangi tajriba qadr-qiymati</b>
1. Odatiylik 2. Xotira 4. “Mening olamim” o’zgarishligi 13. “Mening” qadri 15. “Mening” kelajagim mavhumligi	1. Zamona talablari 6. O’tmishdan voz kechish 2. Yangi tajriba 4. Yangini anglash qadri 3. Pragmatiklik (eski narsalardan yangicha foydalanish)
<b>Faktor 2. O’zgarishlardan voz kechish</b>	<b>Faktor 2. O’zgarishlarga intilish</b>
5. O’tmish qadri 6. Yangidan qo’rquv	9. Yangiga ishonch 5. Yangilik qadri

9. Yangilikka ishonchsizlik 10. Yangilikka ishtiyoq mavjud emasligi 14. O'tmish qulayligi	10. Yangining jozibadorligi 14. Yangining qulayligi
Faktor 3. Taraqqiy etish va o'zni o'zgartirish muammolari	Faktor 3. O'zni rivojlantirish va imkoniyatlarini namoyon qilish
3. Utilitarlik (eski buyumlardan odatiy foydalanish) 7. o'zini o'zgartirishni xohlamaslik 11. tanlov muammosi 12. o'z joyini topish muammosi 8. yangini o'zlashtirish chog'idagi qo'rquv	8. Yangini o'zlashtirish chog'idagi muvaffaqiyatga ishonch 11. Odam nima xohlashini biladi 7. O'zgarish, taraqqiyot qadri 15. Yangi imkoniyatlar 12. Imkoniyatlarini namoyon qilish xohishi 13. Tezkor bo'lish xohishi

Mazkur metodika nafaqat ijtimoiy olam bilan o'zaro ta'sirda namoyon bo'ladigan inson ustanovkalarini, balki ushbu voqelikning alohida fragmentlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ham tadqiq etish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, kashf etilgan ustanovkalar ortida qanday emotsional-kognitiv asoslar mavjudligini ham tushunishga yordam beradi. Ular esa, o'z navbatida, ijtimoiy voqelikni uning muazzamligi, konstantligi yoki o'zgargan holati, shuningdek, transformatsiyalashgan holatini idrok etish jarayonidagi inson xulq-atvori va holatini prognozlash imkonini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda ijtimoiy munosabatlarda shaxs sifatida shakllanishining pedagogik va psixologik omillarini tadqiq etishga mo'ljallangan metodika ijtimoiy olam bilan o'zaro ta'sirda namoyon bo'ladigan inson ustanovkalari bilan birga ushbu voqelikni tashkil qilgan alohida jabhalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ham tadqiq etish imkonini beradi.

2. "O'rta maxsus ma'lumotga ega respondentlar hayotida shaxslararo munosabatlarning o'rtacha davomiyligi oliy ma'lumotli respondentlar hayotidagi shaxslararo munosabatlarning o'rtacha davomiyligidan yuqoriroq". Shaxsning ma'lumotlilik darajasining ortishi uning yangi ijtimoiy guruhlariga mansubligini anglatganligi uchun ham, ma'lumot olish jarayonida u turli insonlar bilan muloqot va munosabatlarga kirishish jarayonida rollarni faol tarzda o'zlashtirib borishga nisbatan ehtiyoj ortib borishi natijasi ekanligi aniqlandi.

3. "O'rta maxsus ma'lumotga ega respondentlarda xususiy tasavvurlar va obrazlar tizimini qayta ko'rib chiqish ehtiyoji kuchli. Zotan, ijtimoiy voqelikning boshqa jabhalariga bo'lgan munosabat olam to'g'risidagi tasavvurlar isloh etilgach o'zgaradi. Biroq, oliy ma'lumotli respondentlarda mazkur ko'rsatkich pastligi mavjud vaziyat ularning ehtiyojlarini to'laqonli qondirayotganini va ijtimoiy olam to'g'risidagi tasavvurlarini o'zgartirish xohishi mavjud emasligini bildiradi".

4. O'tkazilgan tajribamizdan shunday xulosa qilish mumkinki, ma'lumotlilik faktori ijtimoiy voqelikni tashkil etuvchi jabhalar bilan doimiy ravishda o'zgarishlarga moyillik jihatlari talab qilar ekan. Bu esa globallashtirish va integratsiyalashgan jamiyatga adaptatsiyalashuvni osonlashtirish uchun yoshlarda oliy ma'lumot faktorini egallash muhim zarurat ekanligini ko'rsatadi.

5. Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, xizmat sohasi ijtimoiy voqelikni o'zgartirishi yoki konservatsiyasiga, sezilarli farqning hosil bo'lishiga olib keluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo'lishini kuzatdik. Davlat xizmatchisi sifatida faoliyat

yuritish axborotlarning tizimli ravishda qabul qilinishiga ta'siri natijasi deb xulosa qilishga imkoniyat yaratib berdi.



### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" Farmoni, <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Mualliflar jamoasi. Falsafa qomusiy lug'at.-T.:SHarq, 2004.400 b.
3. H.K.Choriyev, Buyuk ilmiy inqiloblar tarixi. –T.:Sharq.2012.244 b.
4. Рассел.Б История западной философии. Москва: Миф, 1993.- 512 с.
5. Гуссерль Э. Философия как строгая наука. Новочеркасск: Сагуна, 1994.-345 с.